

## “QISSASI RABG’UZIY” ASARINING O’ZIGA XOSLIGI VA JANRLAR TARTIBI

*Qo‘qon Universiteti Andijon filiali  
Ijtimoiy- gumanitar fanlar fakulteti*

*Filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi*

*Mahkamova Shohista Lutfullo qizi*

*Filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi*

*Tel’manova Maftuna Islombek qizi*

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo‘lgan Rag’buziyning asarining o‘ziga xosligi va janrlar tarkibi tahlil qilinadi. QUR’ONI Karimda payg’ambarlar qissasining keltirilishi va bu qissalarning keyinchalik boshqa asarlarga asos bo‘lishi, “Qissasi Rabg’uziy” asarining yozilishi va bu asardagi islomiq qissalar va ahloqiy saboqlar janrlari tarkibi o’rganiladi.

**KALIT SO’ZLAR:** Payg’ambarlar va solih bandalar qissasi, ahloqiy saboqlar, islomiq qissalar, “Qissasi Rabg’uziy” asarining Toqbag’aga bag’ishlanishi, janrlardan foydalanish va ularning tarkibi.

**ANNOTATION:** This article will analyze the specifics and genres of the work of Ramgani, one of the largest manifestations of Uzbek literature. In the Qur'an, it will be explored to be the basis of the stories of the story, and the composition of the genres of Islamic stories and morality in this work.

**KEYWORDS:** The story of the Prophets and Salih Subscripts, Islamic Stories, the use of the Rabiqa, the use of genres and their composition.

### KIRISH

Ushbu maqolada Qur’oni Karimda payg’ambarlar tarixining bayon etilishi, ushbu asarning yozilishi tarixi va o‘ziga xos jihatlari, tarkibi, qissalar tahlili, janrlar izchilligi va tuzilishi to’g’risida so’z boradi.

Islom dinining muqaddas kitobi bo’lmish Qur’oni Karimning vahiy orqali nozil bo‘lishi musulmonlarga juda ko’plab o’tmish qissalarini bayon qilib beradi. Bu qissalarda Muhammad sollolohu alayhi vassallamdan ham oldin payg’ambarlar yuborilganligini, ular ham qavimni tawhidga ghaqirganligini va qavmning ularga bo‘lgan munosabatlari haqida so’z yuritiladi. Qur’oni Karim nozil bo’lgandan to bugungi kungacha juda ko’plab Qur’oni qissalar asosida payg’ambarlar tarixi haqida asarlae yozilgan. Dastlabki asar arab tilida yozilgan bo’lsa, keyinchalik fors tilida ham bunday qissalar paydo bo’la boshladi: Turkiy tilda yozilgan payg’ambarlar qissalariga asoslangan eng mashhur asar Rabg’uziyning “Qissasi Rag’buziy”dir. Rabg’uziy (taxallusi, asl ismi-sharifi Nosiriddin Burhoniddin o’g’li) shoir (13-asr oxiri 14-asr

boshlari)da yashab ijod qilgan.Sharq xalqlari og'zaki ijodini ,ayniqsa rivoyatlarini, avliyo-anbiyolar to'g'risidagi qissalarini chuqur o'rgangan.O'zi ham ko'pgina ibratlil hikoyalar ,qissalar yozgan.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Ushbu maqolani yozishda Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'ziy" asari tahlil qilindi. Bu asarda ilgari surilgan mavzu va g'oyalar, san'at va uslubi,tarixiy va madaniy jihatdan esa uning davriga mosligi va ta'sir kuchi o'rganildi.Shuningdek, asardagi diniy va falsafiy mavzularni taxlil qilishda tafsir va ilohiyat metodlaridan ham foydalanildi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Turkiy halqlar adabiyoti tarixida birinchilardan bo'lib,nasrda rivoyatlardan,hikoyatlardan qissa yaratishni boshlab bergen, Bizgacha "Qissasi Rabg'uziy"(1903-10) asarigina yetib kelgan.Asar musulmon mo'g'ul beklridan Nosiriddin To'qbug'aning topshirig'I bilan yozilgan. Kitob turkiy tilda, asosan nasrda madhiyalar,ba'zi qisimlarning xulosalari ,lirk kechinmalar va xotima qismi esa nazmda yozilgan. Asar ananaviy hamd va na't bilan boshlanadi,so'ng uning yozilish sababi, muallif haqida ma'lumot beruvchi qisqa so'zboshi , keyin esa qissalar keladi. Asar jami 72 qismdan iborat. Mavzu doirasiga ko'ra asar qissalari juda rang-barang. Olamdag'i butun mavjudot egasi bo'lgan Allohni ulug'lash, payg'ambarlar hayotiga doir lavhalarni eslash, kamtarlik va takabburlik, ota-onva farzand munosabatlari, erk vaadolat mavzulari shular jumlasidandur.Qissalar hajmi turlicha: Masalan: Yusuf haqida qissa 100 sahifani tashkil qilsa, Lut haqida qissa bir necha sahifadangina iborat.Qissalar real hayot voqealari bilan bog'liq mavzular ham uchraydi. Qissalar bayonida personajlar tasvirida xalq og'zaki ijodining bevosita ta'siri seziladi. Rabg'uziy har bir qissaning boshlanishida payg'ambarlar haqida qisqacha ma'lumot so'ngra izohlovchi she'r, so'ng nasirda qissaning asosiy mazmuni beriladi.Masalan,Idris payg'ambar to'g'risda izoh va she'r keltirilgan, so'ng nasrda uning o'ziga xos xislatlari aytiladi.qissada ma'lum bo'lishicha, Idris payg'ambar ilmu hikmatda, podshohlikda, payg'ambarlikda uchinchidir. Unima narsa bo'lsa tikib kiyshni bilgan, shamshir,pichoq kabi asboblarni yasagan.Jannatda tirik yurgan,yetmish ikki tilni bilgan, dinga da'vat qilib, turli rasim rusimlarni o'rgatgan. Xudo uning sidqidildan qilgan toat-ibodatlari, ishlarini nazarda tutib,o'lib qayta tirilishga, osmonga chiqib sayr qilishga,do'zx va jannatda aylanib jannatda qolishga izin beradi. Asarda boshqa payg'ambarlar haqida ham shu usulda voqealar bayon qilingan.Bu asarda zulim ham qoralangan Masalan: Bir kuni Sulaymon Bouqushdan so'radi, nima uchun doim vayronalig' yerni hohlaysan,nega xalq orasida yurmaysan. Boyqush aytdiki, odam farzandlari bir-biriga qiladigan zulmidan qo'rqaman degan hikmat keltirilgan.

Asarda o'rin olgan hikoyatlarning ko'pchiligi real hayot hodisalarini izihlashga qaratilgan. Masalan: Qarg'alardan bir terni cho'qalib, o'lgan sherigini yerga ko'mishi

odat bo'ldi. Shuningdek, arining g'o'ng'illashi, qaldirg'ochning odamlar orasida bo'lishi, ilonning qurbaqaga o'chligi va hokazolar hayotiy hodisalar bo'lib, izohlovchi hikoyatlaridi.

“Qissasi Rabg’uziy”ga diniy xarakterdagi bbir asar sifatidagina qaramaslik kerak. Chunki asar diniy ruhga nisbatan inson hayoti, kelajagi va real borliq bilan bog’liq dunyoviy ruh ustun darajadadir. Asar tom manodagi ilhom manbaiga aylanishi mumkin bo’lgan nodir yodgorlikdir.

### **XULOSA**

“Qissasi Rabg’uziy”asari o’z davrining diniy, badiiy va falsafiy g’oyalarini aks ettiruvchi eng muhim asar hisoblanadi. Rag’buziy asaridagi va tafsirlar hozirgi kunda ham o’z dolzarbligini yo’qotmagan. Rabg’uziyning bu asari o’zbek adabiyotida badiiy nasr yodgorligining yetuk namunasi hamda 13-14-asrlar eski o’zbek adabiy tilini o’rganishda asosiy manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. QODIROV, A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI:(Alisher Navoiy ijodi misolida). *Hamkor konferensiyalar, 1(11)*, 386-388.
2. Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *University Research Base*, 857-860.
3. Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 2(42), 144-149.
4. Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. *Наука и технология в современном мире*, 4(5), 36-38.
5. O'G'Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). *World of Philology*, 2(2), 46-50.
6. Kobilova, Z. B. (2021). Amiri and fazliy. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 271-276.
7. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 173-176.
8. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In *Конференции*.
9. Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(3), 438-442.

- 10.Жахонгирова, Тамила; ,ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ,Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi,11,2,18-20,2024,
- 11.Andreyevna, Jaxongirova Tamila; ,CURRENT TRENDS AND DEVELOPMENT FACTORS IN THE APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION,Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari,28,1,230-233,2024,
- 12.Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri's novel "The Past Days". Toronto. Design Engineering. 2022. – P. 6091-6101.
- 13.Abdullaevna, K. G. (2024). TRANSLATION CHALLENGES IN SCIENTIFIC AND TECHNICAL TRANSLATION WITH A FOCUS ON TERMINOLOGICAL DICTIONARIES. Science and innovation, 3(Special Issue 34), 178-181.
- 14.Toshboyeva, O. (2024). THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS. *University Research Base*, 992-995.